

## MOLIYAVIY INQIROZLAR, ULARNING SABABLARI VA ULARNING MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Ahrorov Zarif

Toshkent davlat iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali dotsenti.

Turdialiyev Ashraf

Toshkent davlat iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi talabasi.

Xasatullayev Nodirbek

Toshkent davlat iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14277901>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola jahon miqyosidagi eng katta moliyaviy inqirozlar, ularning kelib chiqish sabablari va mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini haqida ma'lumot beradi. Insoniyat tarixida ko'plab moliyaviy inqirozlar bo'lib o'tgan misol uchun 1973-Neft inqirozi, 2010-Yevropa qarz inqirozi va 2020-COVID-19 pandemiyasi sababli iqtisodiy tushkunlik va boshqalar. Bu maqolada biz eng yirik uchta inqiroz haqida gaplashamiz, Jumladan 1929-yilgi "Buyuk depressiya" nima uchun boshlangan va u insoniyatga qanday ta'sir qildi, bundan tashqari 1997-yilgi "Osiyo moliyaviy inqirozi" va 2008-yildagi "Jahon moliyaviy inqirozlari" haqida qimmatli tushunchalarni ko'rib chiqamiz. Eng asosiysi ular nima oqibatlarga olib keldi va ular nima sababdan boshlangan kabi qiziqarli savollaringizga javob topasiz va siz o'zingizning moliyaviy savodxonligingizni oshirishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Moliyaviy inqiroz, Moliya bozori beqarorligi, Kredit riski, Likvidlik muammosi, Bankrotlik, Moliyaviy tartibga solish, Inflatsiya, Deflyatsiya, Valyuta inqirozi, Iqtisodiy o'sishning pasayishi, Xalqaro qarz, Davlat qarzi, Bank tizimi islohoti, Foiz stavkalari, Investitsiya kamayishi, Kapital oqimi, Xavf-xatarlarni boshqarish, Moliyaviy siyosat, Korporativ qarzlar, Ipoteka kredit, Qayta tiklanish jarayonlari.

## FINANCIAL CRISES, THEIR CAUSES AND THEIR IMPACT ON THE ECONOMY OF COUNTRIES

**Abstract.** This article provides information about the major global financial crises, their causes, and their impact on economies. Specifically, it explores the origins, consequences, and effects of the 1929 "Great Depression," the 1997 "Asian Financial Crisis," and the 2008 "Global Financial Crisis." Additionally, it highlights the lessons learned from these crises and the changes they brought to financial systems. Through this article, readers can enhance their financial literacy and gain a deeper understanding of the global economic system.

**Keywords:** Financial Crisis, Financial Market Instability, Credit Risk, Liquidity Problem, Bankruptcy, Financial Regulation, Inflation, Deflation, Currency Crisis, Declining Economic Growth, International Debt, Public Debt, Banking System Reform, Interest Rates, Investment decline, Capital flow, Risk management, Financial policy, Corporate debt, Mortgage loan, Recovery processes.

## ФИНАНСОВЫЕ КРИЗИСЫ, ИХ ПРИЧИНЫ И ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ СТРАН.


**Аннотация.** В данной статье представлена информация о крупнейших мировых финансовых кризисах, их причинах и влиянии на экономику. В частности, рассматриваются причины, последствия и влияние "Великой депрессии" 1929 года, "Азиатского финансового кризиса" 1997 года и "Мирового финансового кризиса" 2008 года. Также обсуждаются уроки, извлечённые из этих кризисов, и изменения, которые они внесли в финансовые системы. Эта статья поможет читателям повысить свою финансовую грамотность и глубже понять глобальную экономическую систему.

**Ключевые слова:** финансовый кризис, нестабильность финансового рынка, кредитный риск, проблема ликвидности, банкротство, финансовое регулирование, инфляция, дефляция, валютный кризис, снижение экономического роста, международный долг, государственный долг, реформа банковской системы, процентные ставки, снижение инвестиций, поток капитала, Управление рисками, Финансовая политика, Корпоративный долг, Ипотечный кредит, Процессы восстановления.

**Kirish:** Moliyaviy inqirozlar insoniyat tarixida iqtisodiy taraqqiyot jarayonini pasaytiruvchi, ko‘plab mamlakatlar iqtisodiy tizimini izdan chiqaruvchi murakkab hodisa hisoblanadi. Ular ko‘pincha bank tizimlarining zaiflashishi, investorlar ishonchining pasayishi va global bozorlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik natijasida yuzaga keladi. Moliyaviy inqirozlar global iqtisodiy tizimning eng zaif nuqtalarini yuzaga chiqaruvchi hodisalardir. Ularning kelib chiqishi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy omillar bilan ham chambarchas bog‘liq. Moliyaviy inqirozlar, ko‘pincha iqtisodiy inqirozlar deb atalib, milliy iqtisodiyotlarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bunday inqirozlar odatda haddan tashqari qarz olish, spekulyativ bozor pufakchalari va noto‘g‘ri iqtisodiy boshqaruv kabi bir nechta omillarning kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladi.

Tarixda ko‘plab davlatlar moliyaviy inqirozlarni boshdan kechirgan bo‘lib, ularning oqibatlari global miqyosda sezilgan.

**Buyuk depressiya:** Dastlabgi moliyaviy inqiroz "Buyuk depressiya" moliyaviy inqirozi barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ayniqsa Kanada, Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya va Fransiyaga eng yirik qurbanlari hisoblanadi. 1929-yil AQShda boshlangan va 1939 - yilgacha davom etgan. 1929-yil 24-oktabrda Nyu-York fond birjasidagi "Qora payshanba" kuni aksiyalar narxining keskin tushishi bilan boshlandi. Bank tizimining zaiflashishi, kreditlar hajmining ortishi va ko'plab banklarning bankrot bo'lishi iqtisodiyotni chuqr turg'unlikka olib keldi. Aholining daromadi pasayib, iste'mol va investitsiyalar qisqardi, natijada bizneslar yopildi, ishsizlik darajasi AQShda 22%ga yetdi.



AQShda 1910—1960-yillardagi ishsizlik darajasi

Kalqaro savdoga bojxona tariflarining oshirilishi ham zarar yetkazdi. Depressiya davomida millionlab odamlar ishsiz va qashshoqlikda yashadi, qishloq xo'jaligi esa, ayniqsa, AQShda "Dust Bowl" bo'ronlari tufayli katta zarar ko'rdi. Siyosiy tizimlarga bo'lgan ishonch pasaydi va ekstremistik g'oyalar tarqaldi.

Buyuk Depressianing boshlanishiga ushbu to'rtta omillar sabab bo'lgan. Birinchidan, 1920-yillarda AQShda iqtisodiy yuksalish davomida aksiyalar narxi sun'iy ravishda ko'tarildi. Investorlar qarz olib, aksiyalarga ko'p mablag' sarfladi, bu esa spekulyativ pufakchani yuzaga keltirdi. 1929-yilda aksiyalar narxi haddan tashqari oshib ketganida, investorlar ulardan qutulishni boshladи, bu esa narxlarning qulashi va fond bozorining inqiroziga olib keldi.

Ikkinchidan, Banklar kreditlash siyosatini nazoratsiz kengaytirib, ortiqcha xavfli qarzlarni berishdi. Fond bozorining qulashi bilan ko'plab banklar katta yo'qotishlarga uchradi va bankrot bo'ldi, bu esa aholi omonatlarini yo'qotishga olib keldi.

Uchinchidan, O'sha davrda moliyaviy tizim ustidan davlat nazorati juda zaif edi. Fond bozori va banklarning faoliyati deyarli tartibga solinmagani tufayli iqtisodiy xavflar yig'ilib bordi.

To'rtinchidan, AQSh iqtisodiyotidagi inqiroz boshqa mamlakatlarga ham tez tarqaldi.

Jahon urushidan keyin xalqaro savdo va moliya tizimlari AQSh iqtisodiyotiga kuchli bog'liq bo'lgan, shuning uchun bu inqiroz global tus oldi. Bundan tashqari AQSh hukumati o'z iqtisodiyotini himoya qilish uchun 1930-yilda Smoot-Hawley bojaxona qonunini qabul qildi. Bu qonun xalqaro savdoni qisqartirib, iqtisodiyotni yanada og'ir ahvolga solib qo'ydi.

Davlatlar iqtisodiyotiga ta'sirlari: Sanoat shaharlari eng ko'p zarar ko'rdi, bir qator mamlakatlarda qurilish deyarli to'xtadi. Talabning qisqarishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxi 40-60 foizga arzonlashdi. 1929—1932-yillar oralig'ida butun dunyo bo'ylab yalpi ichki mahsulot (YaIM) taxminan 15 % ga kamaydi. Taqqoslash uchun, jahon yalpi ichki mahsuloti 2008-yildan 2009-yilgacha Buyuk turg'unlik davrida 1 % dan kamroq kamaydi. Ayrim iqtisodlar 1930-yillarning o'rtalariga kelib tiklana boshladi. Biroq, ko'plab mamlakatlarda Buyuk Depressiyaning salbiy oqibatlari Ikkinci Jahon urushi boshlanishiga qadar davom etdi. Vayron qiluvchi ta'sir boy va kambag'al mamlakatlarda shaxsiy daromad, narxlar, soliq tushumlari, foyda va narxlarning pasayishi bilan kuzatildi. Xalqaro savdo 50 % dan ko'proq kamaydi.

Dunyo bo'ylab shaharlar, ayniqsa og'ir sanoatga qaram bo'lgan shaharlar qattiq zARBaga uchradi. Ko'pgina mamlakatlarda qurilish deyarli to'xtatildi. Dehqon jamoalari va qishloq joylari ekin narxi taxminan 60 % ga tushishi sababli zarar ko'rdi. Talabning keskin kamayishi va ish o'rinalining kamligi bilan birlamchi sanoat tarmoqlariga qaram bo'lgan hududlar eng ko'p zarar ko'rdi. Iqtisodiy tarixchilar odatda Buyuk Depressiya katalizatorini 1929-yil 24-oktyabrdan boshlab AQSH fond bozori narxlarining to'satdan halokatli qulashi deb hisoblashadi. Biroq, ba'zilar bu xulosaga e'tiroz bildirishadi va qimmatli qog'ozlarning qulashini Buyuk Depressiyada sabab emas, balki alomat deb bilishadi.

**Osiyo moliyaviy inqirozi:** 1997-yilda Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini qamrab olgan yirik moliyaviy krizis bo'ldi.



Ushbu inqiroz 1997-yil iyul oyida Tailandda boshlangan va qisqa vaqt ichida boshqa davlatlarga ham tarqaldi. Bu holat butun dunyoda iqtisodiy tanazzul xavotirlarini kuchaytirdi.

Osiyo moliyaviy inqirozining asosiy sabablari bu valyuta kurslarining beqarorligi va ko'pchilik mamlakatlarda qisqa muddatli tashqi qarzlarning o'sishi bo'lgan. 1997-yilgi Osiyo moliyaviy inqirozining asosiy sababi valyuta kurslarining noto'g'ri boshqaruvi bo'lib, bu inqirozga olib kelgan eng muhim omil edi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, jumladan Tailand, Janubiy Koreya va Indoneziya, o'z milliy valyutalarini AQSh dollariga bog'lagan holda qattiq valyuta siyosatini olib borishdi. Bu siyosat dastlab iqtisodiy barqarorlik va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyatli bo'lib ko'rindi, biroq uzoq muddatda iqtisodiy muvozanatni buzdi va moliyaviy tizimning zaif tomonlarini ochib berdi.

Birinchidan, dollar bilan bog'langan valyutalar qimmatlashib, bu mamlakatlarning eksport mahsulotlarini jahon bozorida raqobatbardosh bo'lmay qolishiga olib keldi. Natijada, iqtisodiyotning muhim qismi hisoblangan eksport sektori zarar ko'ra boshladi. Shu bilan birga, qimmat valyutalar import mahsulotlarini arzonlashtirdi, bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarga bosim o'tkazdi va iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytirdi.

Ikkinchidan, ushu mamlakatlarda tashqi qarzlarning keskin ko'payishi kuzatildi. Valyuta kursi barqarorligiga ishonch sababli, hukumatlar va korporatsiyalar katta miqdorda tashqi qarz olishni davom ettirdilar. Bu qarzlarning aksariyati qisqa muddatli va AQSh dollarida edi. Lekin valyutalar qadrsizlana boshlagach, qarzlarni qaytarish qimmatlashdi va moliyaviy tizimga katta zarar yetkazdi.

Uchinchidan, kapital oqimining beqarorligi muhim rol o'ynadi. Xorijiy investorlar valyuta barqarorligini inobatga olib, qisqa muddatli kapitalni mamlakatlarga olib kirdilar. Biroq, valyutalar qadrsizlanishi boshlanganda, bu kapital mamlakatlardan tezda chiqib ketdi, bu esa bank tizimini inqirozga olib keldi.

Nihoyat, spekulyativ hujumlar vaziyatni yanada og'irlashtirdi. Valyutalar real iqtisodiy qiymatdan ortiqcha baholanganini payqagan moliyaviy spekulyatorlar, bu valyutalarni ommaviy sotib, ularning qadrsizlanishini tezlashtirdilar. Tailandda baht valyutasi birinchi bo'lib quladi, chunki hukumat dollar kursini ushlab qolishga urinishda katta miqdordagi zaxiralarni yo'qotdi. Oxir-oqibat, ular kursni bo'sh qo'yishga majbur bo'ldi. Bu inqiroz boshqa davlatlarga ham tez tarqaldi.

Shunga qaramay, 1998—1999-yillarda mintaqadagi tiklanish tez amalga oshdi va iqtisodiy tizimlarning parchalanishi bo'yicha xavotirlar tezda barham topdi. 1997-yil 2-iyulda Tailandda boshlangan va "Tom Yam Kung" inqirozi deb atalgan moliyaviy inqiroz Tailand hukumati chet el valyutasi yo'qligi sababli bahtni o'zgartirishga majbur bo'lganidan so'ng, Tailand bahtining

moliyaviy qulashi natijasida yuzaga keldi. Tailand valyutasining AQSh dollariga bog'lanishini qo'llab-quvvatlashga urinib, kapitalning tez parvoz qilishini boshladi, bu esa xalqaro iqtisodiyotda zanjir reaktsiyasini keltirib chiqardi. Tailand tashqi qarz yukini o'z zimmasiga olgan bo'lib, inqirozning tarqalishi bilan boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida ham valyutalar pasayib, fond bozorlari va boshqa aktivlar bahosi tushdi, xususiy qarz esa keskin o'sdi. 1993–1996-yillarda ASEANning to'rtta yirik iqtisodida tashqi qarzning YaIMga nisbati 100% dan 167% gacha ko'tarildi, inqirozning eng yomon davrida esa 180%dan oshdi. Janubiy Koreyada bu ko'rsatkichlar 13% dan 21% gacha ko'tarildi va keyin 40%ga yetdi. Inqirozdan eng ko'p zarar ko'rgan davlatlar Janubiy Koreya, Indoneziya va Tailand bo'ldi, Gonkong, Laos, Malayziya va Filippin ham zararni boshdan kechirdi. Xitoy va Yaponiya kabi ba'zi davlatlar kamroq zarar ko'rgan, lekin ular ham mintaqadagi talab va ishonchning yo'qolishidan aziyat chekdi. Xitoy, o'zining valyutasini qadrsizlantirmaslik va 4 milliard dollar miqdorida qutqaruv pullari qo'shish orqali mintaqadagi obro'ni oshirdi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) Janubiy Koreya, Tailand va Indoneziyaning valyutalarini barqarorlashtirish uchun 40 milliard dollarlik yordam dasturini ishga tushirdi. Ammo, global iqtisodiy inqiroz Indoneziyadagi ichki vaziyatni barqarorlashtirishga unchalik yordam bermadi va 1998-yil may oyida Indoneziya prezidenti Suxarto rupiyaning keskin devalvatsiyasi va narxlarning oshishi ortidan iste'foga chiqdi. 1998-yilda Filippinda iqtisodiy o'sish deyarli nolga tushdi. Singapur esa zarbadan nisbatan izolyatsiyalangan bo'lishiga qaramay, Malayziya va Indoneziya bilan geografik yaqinligi tufayli jiddiy zarblar oldi. 1999-yilda esa Osiyo iqtisodlari tiklana boshladi va mintaqadagi davlatlar moliyaviy barqarorlikni yaxshilash yo'lida hamkorlikni kuchaytirdi.

**Jahon moliyaviy inqirozi:** Jahon moliyaviy inqirozi global iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatgan murakkab jarayondir. Bunday inqirozlar odatda moliyaviy tizimlarning zaifligi, iqtisodiy siyosatdagi xatoliklar va xalqaro moliyaviy bozorlar muvozanatsizligi natijasida yuzaga keladi.

Moliyaviy inqirozlar sabablari xilma-xil bo'lib, ularning asosiy omillari kreditlashning nazoratsiz o'sishi, moliyaviy xavflarning noto'g'ri boshqarilishi va siyosiy noaniqlik bilan bog'liq.

Bundan tashqari, bank tizimining yetarli darajada barqaror emasligi, geosiyosiy ziddiyatlar va xomashyo narxlarining keskin o'zgarishi kabi omillar ham muhim rol o'ynaydi.

Moliyaviy inqirozlar tarixida 1929-yildagi Buyuk depressiya va 2008-yildagi global moliyaviy inqiroz alohida o'rinn egallaydi. Buyuk depressiyada AQShda aksiyalar bozorining qulashi natijasida global iqtisodiyot inqirozga uchragan, ko'plab banklar yopilgan va ishsizlik darajasi keskin oshgan. 2008-yildagi inqiroz esa ipoteka bozoridagi muammolar sababli yuzaga kelib, butun dunyo moliyaviy tizimiga zarar yetkazgan.

Bu inqirozning eng asosiy sababi 2008-yilda ipoteka kredit siyosatida juda katta xato qarorlar qabul qilinishi bo'ladi. Usha paytda AQSH banklari ipoteka kreditini qaytarish qobiliyatiga ega bo'limganlarga ham bera boshlaydi jumladan uysizlar va boshqa qashshoq aholiga ham, tabiiyki ular uylarni qaytara olishmaydi va banklar o'sha uylar ipoteka bozoriga chiqaradi keyinchalik bu ipoteka bozori inqiroziga sabab bo'ladi. Hozirgi globallashgan davrda barcha iqtisodiyotlar bir-biri bilan bog'liq va AQSHdagi inqiroz barcha iqtisodiyot sektorlariga undan keyin boshqa davlatlar iqtisodiyotiga katta ta'sir qilgan.

Bunday inqirozlarning oqibatlari jiddiy bo'lib, iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi, ishsizlikning oshishi va ijtimoiy muammolarning kuchayishi bilan namoyon bo'ladi. Moliyaviy inqiroz korxonalarining yopilishi, aholi daromadlarining pasayishi va qashshoqlik darajasining o'sishiga olib keladi.

Moliyaviy inqirozlarning oldini olish uchun moliya tizimini mustahkamlash, moliyaviy xavflarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bozorlarni shaffof boshqarish va kreditlash jarayonlarini nazorat qilish ham inqirozlarning oldini olishga yordam beradi.

Inqirozdan chiqish uchun AQSh va Yevropa Ittifoqi qator chora-tadbirlarni amalgalash oshirdi.

Yirik tijorat banklarini qutqarish maqsadida ularning aksiyalari davlat tomonidan sotib olinib, byudjet mablag'lari hisobidan likvidli aktivlar bilan ta'minlandi. Shuningdek, tijorat banklari kreditlariga davlat kafolatlari tizimi joriy etildi. Masalan, AQShda Federal zaxira tizimi xususiy sektorga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida qimmatli qog'ozlar xarid qildi. Buyuk Britaniya hukumati esa banklar va moliyaviy institutlar aksiyalariga 37 mlrd. funt sterling sarmoya kiritdi. Germaniya hukumati bank sektorini qo'llab-quvvatlash uchun 500 mlrd. evro miqdorida investitsiyalar va kreditlar ajratdi. Ushbu davrda Yevropadagi ko'plab yirik banklar davlat tasarrufiga o'tkazildi. Inqiroz oqibatlarini yengillashtirish uchun davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish usullari faol qo'llanildi. Rivojlangan mamlakatlar inqirozni bartaraf etish uchun katta hajmdagi moliyaviy resurslarni safarbar qilishdi. Xususan, AQSh hukumati inqirozga qarshi 3539 mlrd. dollar sarflab, bu mablag' mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25% ini tashkil etdi. O'zbekiston ham xalqaro iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida inqirozning mahalliy iqtisodiyotga salbiy ta'siridan butkul xoli bo'lishi mumkin emas edi.

**Xulosा:** Moliyaviy inqirozlar iqtisodiy tizimga katta zarar yetkazadi va jamiyatni uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarga duchor etadi. Ushbu maqlolada keltirilgan tarixiy inqirozlar, jumladan "Buyuk depressiya", "Osiyo moliyaviy inqirozi" va "Jahon moliyaviy inqirozi" ularning sabablari, oqibatlari hamda xalqaro miqyosdagi ta'siri batafsil tahlil qilindi.

Moliyaviy inqirozlarning asosiy sabablari sifatida noto‘g‘ri boshqaruv, spekulyativ pufakchalar va haddan tashqari qarz olish ko‘rsatildi. Bu holatlar iqtisodiy barqarorlikning zaifligini va moliyaviy tizimlardagi strukturaviy muammolarni ochib berdi. Bu davrda ayrim davlatlarning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) sezilarli darajada qisqargan, bu esa keng ko‘lamli ijtimoiy muammolar, jumladan ishsizlikning oshishi va aholining umumiyligi tushkunlik kayfiyatiga olib kelgan. AQSHning 44-prezidenti Barack Obama ushbu inqiroz haqida “Uning ildizi mas’uliyatsizlik va ehtiyyotsizlikda” ekanligini ta’kidlagan va bunday holatlarning takrorlanmasligi uchun muhim darslar chiqarish zarurligini alohida ta’kidlagan. Shuningdek, “Buyuk depressiya” va “Osiyo moliyaviy inqirozi” misollari ham inqirozlarning sabablari noto‘g‘ri qarorlar va boshqaruvning zaifligi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. “Buyuk depressiya”da AQSH va Yevropadagi iqtisodiy qiyinchiliklar global miqyosda ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, “Osiyo moliyaviy inqirozi” Osiyo davlatlaridagi moliyaviy bozorlarning zaifligini va valyuta siyosatidagi muammolarni ochib berdi. Ushbu inqirozlar milliy iqtisodiyotlardan tashqariga chiqib, global miqyosda iqtisodiy hamkorlik va tartibga solish tizimlarining yetarlicha samarali emasligini namoyon qildi. Kelajakda bunday inqirozlarning oldini olish uchun samarali tartibga solish, global moliyaviy hamkorlikni kuchaytirish va moliyaviy bozorlarni yanada shaffoflashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda xalqaro moliyaviy institutlarning hamkorligi va rivojlangan texnologiyalardan foydalanish o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Shu yo‘l bilan nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, balki xalqaro moliyaviy tizimni mustahkamlash, moliyaviy inqirozlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish va kelajakda ularga qarshi immunitet hosil qilishga erishish mumkin bo‘ladi.

## REFERENCES

1. Jo‘rayev.T.T. *Iqtisodiyot nazariyasi* (o‘zbekcha). Toshkent: Fan va Texnologiyalar, 2018-yil — 352-357-bet. [ISBN 978-9943-11-903-1](#).
2. Brian Duignan. [“financial crisis of 2007–08”](#) (inglizcha). britannica.com. Qaraldi: 7-aprel 2023-yil.
3. Karimov, Islom. *JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI, O’ZBEKISTON SHAROITIDA UNI BARTARAF ETISHNING YO’LLARI VA CHORALARI*, O’zbekiston, Toshkent: O’zbekiston, 2009.
4. Wenjie Chen, Mico Mrkaic, and Malhar Nabar (mart 2019-yil). [“The Global Economic Recovery 10 Years After the 2008 Financial Crisis”](#). IMF Working Paper. № WP/19/83. 15-bet. Qaraldi: 7-aprel 2023-yil.
5. „Buyuk Depressiya tarixi“. Tarix. 2022-yil 20-mayda olindi.

6. Jon A. Garrati, Buyuk Depressiya (1986).
7. Duhigg, Charlz (2008-yil 23-mart). „[Depressiya, deysizmi? Xavfsizlik tarmoqlarini tekshiring](#)“. The New York Times.
8. Eichengreen, Barry J. (2015). „[Ko‘zgular zali: Buyuk Depressiya, buyuk tanazzul, tarixdan foydalanish va noto‘g‘ri foydalanish](#)“. Nyu-York, Nyu-York: Oksford universiteti nashriyoti.
9. Rojer Louenshteyn. „[Tarix takrorlanadi](#)“. Wall Street Journal 2015-yil 14-yanvar.
10. Garrati, Buyuk depressiya (1986).
11. Frank, Robert X.; Bernanke, Ben S. (2007). Makroiqtisodiyot tamoyillari (3-nashr). Boston: MakGrou-Xill/Irvin. 98-bet.
12. „[Tovar ma’lumotlari](#)“. AQSh Mehnat statistikasi byurosi.
13. Cochrane, Willard V. (1958). „Fermer narxlari, afsona va haqiqat“: 15.
14. "Jahon iqtisodiy tadqiqoti 1932-33". Millatlar Ligasi: 43.
15. Mitchell, Depressiya o‘n yilligi.
16. „[Buyuk Depressiya](#)“. Encyclopædia Britannica.